

**TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISHNING  
NAZARIY ASOSLARI**

**Abdullayeva Yulduz Qosimjonovna**

*Farg'ona viloyati Bog'dod tumani 21-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *ta'limda texnologik yondashuvning kelib chiqish manbalari, pedagogik texnologiyaning ta'lim sohasidagi mezoni, pedagogik texnologiyaning tamoyillari va ularning qo'llanilishi, pedagogik texnologiyaning bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilishi*

**Kalit so'zlar:** *pedagogik texnologiya, texnologik yondoshuv, tamoyillar, interfaol metodlar*

Pedagogik texnologiya - o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'indisi va komponovkasi (joylashuvini) belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi: u pedagogik jarayonning tashkiliy- uslubiy vositalardan iborat. Pedagogik texnologiya bu ma'lumot texnologiyasini joriy etish taktikasini ifotalaydi va "o'qituvchi- pedagogik jarayon" o'quvchi (talaba) funksional tizim qonuniyatlariga tegishli bilimlar asosida quriladi.

Alohida qayd etib o'tish joizki, ayni vaqtda ta'lim texnologiyasi tushunchasini mantiqiy-g'oyaviy jihatdan izohlash borasida yagona fikr mavjud emas. Pedagogik adabiyotlarda uch yuzdan ortiq tariflar berilgan.

Ta'lim tizimini uzluksiz ravishda islohotlarni amalga oshirishni talab etedigan sohadir. Ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash ham yangicha mazmun kasb etdi. Davlat talim standartlarining ishlab chiqilganligi, yangi o'quv dasturining amaliyotga joriy etilganligi, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga nisbatan yuqori talabning qo'yilganligi, ta'lim amaliyotiga pedagogik texnologiyalar olib kirilayotganligi, o'quvchilarni kasbga muvafaqqiyatli yo'llash maqsadida psixologik va pedagogik diagnostika barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng ko'lamda amalga oshirilayotganligi kabi holatlar ko'zga tashlanayotgan bir vaqtda o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini eng samarali shakl, metod va vositalar yordamida nazorat qilish hamda baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari va ularning mohiyatini bilish mazkur jarayon haqida aniq tasavvurga ega o'lish imkoniyatini yaratadi. Pedagogik texnologiya umumiy didaktik tamoyillarga ega bo'lish bilan birga, quyidagi o'zigagina xos bo'lgan tamoyillarga ham ega.

1. Bir butunlik, yaxlitlik tamoyili ikki jihatni o'ziga aks ettiradi: 1) ta'lim, tarbiya hamda

shaxs kamoloti (taraqqiyoti) birligi; 2) pedagogic texnologiyaning qat'iy tizimga egaligi, "tizimlilik" tushunchasi bu o'rinda ham ma'lum o'quv fanini o'qitish jarayoniga, ham umumiy ta'lim jarayoniga xoslikni anglatadi.

2.Asoslilik (fundamentlik) tamoyili fanlarning o'rganish obyekti, ichki mohiyati va xususiyatlariga ko'ra turli yo'nalish (blok)larga bo'lib o'rganish afzalliklarini ifoda etadi.

3.Madaniyatni anglash (madaniy hayotning rivojlanishiga muvofiqlik) Bu tamoyil tinglovchilarga ijtimoiy jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasidan kelib chiqib ta'lim berilishini nazarda tutadi.

4. Ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va insoniylashtirish tamoyili.

5.O'qitib tadqiq etish, tadqiq etib o'qitish tamoyili.

6. Ta'limni uzluksizligi tamoyili ta'lim oluvchilarning kasbiy sifatlar

7. Faoliyatga yondashuv tamoyili nazariya va amaliyotning didaktik bog'liqligiga asoslanadi. Didaktika nazariyasida bilim tushunchasi quyidagi ikki xil ma'noda izohlanadi: a) ta'lim oluvchilar o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlar; b) ular tomonidan o'zlashtirilib, amaliy faoliyat jarayonida qo'llaniladigan, shaxsiy tajribaga aylangan bilimlar.

Pedagogik texnologiyaning rivojlanish bosqichini 4 davrga bo'lish mumkin: 1.40-50-yillar. Pedagogik texnologiyaning ta'lim jarayonida audiovisual (texnik vositalar) vositalaridan foydalanish tushuniladi. 2.50-60-yillar.Ta'lim texnologiyalarini programmalashtirilgan ta'lim sifatida qaralar edi. 3.60-70-yillar. Ta'lim jarayonini loyihalashtirib aniq belgilangan maqsadning kafolotlangan natijasiga erishish sifatida qaraladi.

4. Ta'lim jarayoniga kompyuter texnikasi va axborot texnologiyasining kirib kelishi bilan bog'liq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, shaxsga uning butun umri uchun asqotishi mumkin bo'lgan bilimlarni berish mumkin emas, zero, mavjud bilimlar har besh o'n yil mobaynida o'zgarib mazmunan boyib boradi. Demak, mazkur tamoyil o'qituvchining o'z faoliyatida mustaqil ta'limni tashkil etishga etibor berishi, pedagog yetakchiligini ta'minlagan ta'limdan tinglovchilarning mustaqil bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berishni ifodalaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLARI:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 4-19.

2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: 1998. B. 20-29.

3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1998. B. 31-61.

4. Boshlang'ich ta'lim

5. Mavlonova R.A, Rahmonqulova N.H "Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi Toshkent-2006

6. Pedagogika nazariyasi Maruzalar matni pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi